

## RAQAMLI BANKLARDA SUN'YIY INTELLEKTNI QO'LLASH

*Rajabboyeva Nilufar Qahramon qizi*  
*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti talabasi*  
[\*rajabboyevanilufar6@gmail.com\*](mailto:rajabboyevanilufar6@gmail.com)

**Annotatsiya:** Raqamli banklarda sun'iy intellektni qo'llash – bugungi kunda odatiy bo'lgan barcha bank xizmatlarni onlayn tarzda amalga oshiradigan bizga 24/7 rejimida bemaolol xizmat qiladigan raqamli banklarda sun'iy intellektni qo'llash va natijada qanday afzalliklarga erishamiz va qanday kamchiliklar kelib chiqadi shular haqida fikr yuritamiz. Ushbu maqolada Anorbank AJ faoliyati misolida ta'rif berib o'tamiz. Shuningdek, mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan banklarda bank xizmatlarining qay darajada xizmat ko'rsatayotgani haqida xulosalar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** Raqamli bank, sun'iy intellekt, Anorbank AJ, ilovalar.

**Kirish:** Bugungi kunda yurtimizda raqamli banklar faoliyati soni tobora ortib bormoqda. O'z navbatida raqamli banklar tijorat banklaridan bir qancha afzalliklari bilan ajralib turadi. Misol uchun raqamli banklar tijorat banklaridan farqli o'laroq bizga 24/7 rejimida xizmat ko'rsatadi. Raqamli banklarda sun'iy intellektni qo'llash bilan bir qancha yengilliklar mavjud. Shu o'rinda sun'iy intellektga ta'rif berib o'tamiz: sun'iy intellekt bu mashinalar tomonidan ko'rsatiladigan ong ya'ni o'z muhitini fahmlaydigan va maqsadlarga muvaffaqiyatli erishish imkoniyatini maksimal darajada oshiradigan amallarni bajaruvchi har qanday sistema hisoblanadi. Banklarda foydalanuvchilarni masofadan biometrik identifikatsiyalash (Face ID) va kredit tavakkalchiliklarini baholash uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash yo'lga qo'yilgan. Misol uchun siz kredit olish uchun bankka murojat qilsangiz ma'lumotlaringiz kiritilishi bilan kredit tarixingiz kelib chiqadi va shu orqali sizga kredit ajratilishi yoki ajratilmasligi avtomatik tarzda aniqlanadi. Bu orqali nafaqat raqamli banklarda balki, tijorat banklaridagi yo'qotishlarni oldini oladi. Undan tashqari banklarning veb-ilovalari va mobil ilovalari mijozlarga ular bilan hamkorlik qilish va savollariga javob berish uchun xizmat ko'rsatuvchi agentlar sifatida chat-botlarni taqdim etadi. Bugungi kunda yurtimizda nafaqat bank sohasida balki boshqa sohalarda ham sun'iy intellektni qo'llash davlat dasturi darajasiga ko'tarilgan. Shu jumladan: "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasiga muvofiq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo'llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta'minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish tasdiqlangan. Aynan ushbu strategiyada banklar faoliyatini samaradorligini oshirish va ular tomonidan tartibga solish talablari (Subtech va Regtech) bajarilishi soddalashtirishni

qo'llash vazifasi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF5296-sonli farmoni imzolangan, bank tizimiga chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va bank bo'limlarini tashkil etish hamda innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada kengaytirish vazifasi yuklatilgan. Shunga ko'ra O'zbekistonda 2020-yilda "Anorbank" va "TBC bank"lar raqamli bank sifatida ro'yxatga olindi. Bugungi kunda "Anorbank" o'z mijozlariga mobil ilovalar yoki statsionar kompyuterlar orqali to'liq raqamli xizmatni taqdim etmoqda. Bu esa biz 24/7 rejimda xizmat ko'rsatishini anglatadi. Shu o'rinda tijorat banklari ham o'z ilovalari orqali 24/7 rejimda xizmat korsatishni yo'lga qo'ygan. Ammo ularning faoliyati va boshqaruvi markazlashgan holda amalga oshiriladi bu esa mijozlarning bank xizmatidan qoniqish darajasiga salbiy tasir ko'rsatadi. "Anorbank" mobil ilovasidagi mavjud imkoniyatlarni sanab o'tamiz va natijada tijorat banklaridan qanday afzallik va qulayliklarda ustun ekanligini ko'rishimiz mumkin.

- NFC orqali Face ID bilan oson ro'yxatdan o'tish
- Qulay interfeys
- Aqlli o'tkazma
- Kartalarni buyurtma qilish va yetkazib berish
- Kreditlarni rasmiylashtirish
- Omonatlarni ochish va boshqarish
- Life ID orqali xavfsizlikni boshqarish
- Kartalarni bloklash
- Avtoto'lovlar va h.k.

**Xulosa va takliflar:** Ba'zi bankir firibgarlarning kriminal harakatlari tufayli tahminan 80% banklar litsenziyalaridan mahrum qilingan, bir qancha banklar esa iqtisodiy hurujlar tufayli o'zlarining bir qancha bo'limlarini vaqtinchalik yopib turishga majbur bo'lganlar. Shuning uchun ham tashkilotlarning ishonchli xavfsizligini ta'minlash uchun nafaqat dasturiy-texnik vositalar, balki sozlangan, yaxshilab tekshirilgan raqamli banking tizimi rivojlantirilishi kerak. "Raqamli banking" tushunchasi 2sun'iy intellekt bilan uzviy bog'liq tushuncha ekanligi o'z isbotini ko'rsatyapti. Sun'iy intellekt texnologiyalariga bo'lgan talab hozirgi davrda bu sohadagi startaplarning ancha ko'payishiga olib keldi. Moliyaviy xizmatlarning raqamli transformatsiyasi bank mijozlari uchun keng imkoniyatlar yaratib, moliyaviy faollikni oshirish uchun muhim bosqich sanalishi bilan birga, mijozlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Ya'ni, raqamli banklarning istiqbollardan biri, bu moliyaviy tarmoqlarni raqamlashtirish evaziga xizmatlar tannarxi 40-60 foizgacha pasaytirishga erishiladi. Shu bilan birga mijozlarning bankka tashrifi, hujjatlarni rasmiylashtirish uchun ketadigan vaqti mablag'i tejalishiga imkon

yaratadi. Bir soʻz bilan aytganda raqamli bank xizmatlarini yoʻlga qoʻyish xizmat sifatini yaxshilash, ortiqcha xarajatlarni tejashga olib kelishi bilan birga raqamli moliyaviy xizmatlarni mamlakat bank-moliya tizimi ravnaqining muhim yoʻnalishi boʻlib xizmat qiladi. Bular shundan darak beradiki, raqamli banklar rivojlanishi va sifatli xizmatlar taklif etilishi bilan raqamli bank xizmati foydalanuvchilari soni oshib bormoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. <https://strategy.uz/index.php?news=%201238&lang=uz>
2. [ANORBANK — Первый отечественный цифровой банк](#)
3. [Bank sohasida - Raqamli iqtisodiyot sunʼy intellektni oʻrni \(fayllar.org\)](#)